

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA
SITUATIV TALIM METODIKASIDAN FOYDALANISH**

Nurillayeva Mardona Dilshod qizi

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail: nurillayevamardona.20.03@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida Tarbiya fanini o'qitishda situativ ta'lim metodikasining o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Ushbu metodika o'quvchilarning shaxsiy tajribalarini inobatga olib, ularni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlashga qaratilgan. Maqolada situativ ta'lim metodikasining asosiy tamoyillari, afzalliklari va uni amaliyotda qo'llash usullari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** situativ ta'lim metodikasi, Tarbiya fani, umumta'lim maktablari, interfaol usullar, o'quvchi faolligi, shaxsiy tajriba, real vaziyatlar.*

***Аннотация.** В статье анализируется роль и значение методов ситуативного обучения в преподавании педагогики в средних школах. Данная методика направлена на подготовку студентов к реальным жизненным ситуациям с учетом их личного опыта. В статье представлены основные принципы, преимущества и способы применения методологии ситуационного обучения на практике.*

***Ключевые слова:** методология ситуационного обучения, образование, средние школы, интерактивные методы, деятельность учащихся, личный опыт, реальные ситуации.*

***Annotation.** This article analyzes the role and importance of the situational teaching methodology in teaching Education in secondary schools. This methodology is aimed at preparing students for real-life situations, taking into account their personal experiences. The article presents the main principles, advantages and methods of applying the situational teaching methodology in practice.*

***Key words:** situational teaching methodology, Education, secondary schools, interactive methods, student activity, personal experience, real situations.*

KIRISH

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni fan qaytadan kurib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi uz qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy

bog`langandir. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo`lgan va mua`yan qonuniyatlarda namoyon bo`ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko`rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o`zaro ta'sir ko`rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida" gi qonuni oila, davlat oldidagi mas'uliyatini anglab etadigan har tomonlama etuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettirishdek yuksak madaniyatlarni belgilab berdi.

Tarbiya jarayonida kishining turli kobilyatlari rivojlanadi, g`oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o`zlashtiradi: bu o`zlashtirishda uning ongli harakati, tirishkokligi katta ahamiyatga ega bo`ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko`rsatmasalar tajriba va bilimni o`zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulg`aygan sari bu faollik tabora ko`proq mustaqil xususiyatlarga ega bo`lib boradi; tarbiyalanuvchilar o`zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, uz-o`zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo`lishga kunika boradilar.

Hamma davrlarning ilg`or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutaffakirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O`tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Situativ ta'lim metodikasining o'quvchilarda samarali ta'lim jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati va uning ta'lim sifatiga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Bu metodikaning pedagogik jarayonda qo'llanilishi o'quvchilarning faoliyatini faollashtirish, muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

G'oziev E. va O'tanov B. (1992) o'zlarining "Hamkorlik psixologiyasi" nomli asarida ta'lim jarayonida hamkorlik va jamoaviy ishning o'quvchilarni rivojlantirishdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berishadi. Ularning fikricha, o'quvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlik nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki shaxslararo munosabatlar va jamoaviy fikrlashni ham rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, situativ ta'lim metodikasining asosiy tamoyillaridan biridir, chunki u o'quvchilarga guruhlarda ishlash va bir-birlariga yordam berish

imkonini yaratadi, bu esa qarorlar qabul qilishda ijtimoiy tajriba va fikrlarni almashish imkonini beradi [1]. G'oziev E. (2004) o'zining "Oliy maktab psixologiyasi" asarida psixologiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Muallif, oliy ta'limda psixologiyaning rolini o'rganar ekan, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda shaxsiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Shaxsning psixologik xususiyatlari va uning o'quv jarayoniga ta'siri, xususan, situativ metodikalarning amaliy qo'llanilishida katta ahamiyatga ega, chunki o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish, o'qitishda ularni faol ishtirok etishga undaydi [2].

Ranibratseva Z.M. (1971) o'zining "Metodika преподавания психологии" nomli asarida psixologiya o'qitish metodikalarini va pedagogik usullarni tahlil qiladi. U o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishining muhimligini ta'kidlaydi, bu esa situativ ta'lim metodikasida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarga o'qitish jarayonida turli vaziyatlar yaratish, ularni o'z fikrlarini erkin ifodalashga undash va mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu metodika o'quvchilarning tashqi muhitga moslashuvchanligini oshiradi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi [3]. Davletshin M.G. (2002) o'zining "Umumiy psixologiya" asarida psixologik aspektlar va pedagogik jarayonda ularning roli haqida batafsil ma'lumot beradi. U psixologiyaning ta'limdagi ahamiyatini ta'kidlab, shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga va uning o'quv faoliyatiga ta'sirini o'rganadi. Shuningdek, u o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olishning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam berishini bildiradi. Situativ ta'lim metodikasida psixologik tamoyillarni qo'llash, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi [4].

Karimova V. (2000) "Psixologiya" nomli asarida ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlarning zarurligini ta'kidlaydi. Psixologik yondashuvlar, o'quvchilarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, situativ ta'lim metodikasi o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatadi, bu esa ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5].

S.Ogaev (2000) "Ta'lim texnologiyasi" maqolasida ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayonida qo'llanilishining ahamiyatini ko'rib chiqadi. U ta'limning zamonaviy texnologiyalari o'quvchilarga yangi yondashuvlar va metodlarni taqdim etish orqali ularning o'quv faoliyatiga ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Situativ ta'lim metodikasi ham, aynan, yangi texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya qoidalari o`qituvchi, tarbiyachilarga yo`l-yo`riq ko`rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo`lib, tarbiyaning o`ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi.

Tarbiyaviy jarayonda bu qoidlarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog`liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi qoidasi, tarbiyada o`quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarning hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi qoidasi. Tarbiyadan ko`zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko`ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko`zda tutadi. Umumiy ta'lim maktabining asosiy vazifasi-shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg`uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuningdek, o`quvchilarda milliy g`urur va milliy axloq-odobni shakllanitirishni ko`zda tutadi. Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan bog`lashni, uni rejali tarzda va qat'iy suratda amalga oshirishga harakat qilishini talab etadi.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbol-larini ko`ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o`ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo`ysundirilgan bo`lsa, uning g`oyaviy-siyosiy darajasini ko`taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo`ladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi. O`quv yurtlari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o`z ishining ustasi bo`lgan o`qituvchiga muhtoj. O`qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O`qituvchi yurish - turishi, hatti-harakati, qiyinishi, muomalasi bilan o`quvchi kalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo`naltirishi kerak.

O`quv yurtlarida ruhiy xizmatdan foydalanib bolalar kayfiyatini, intilishini va qobiliyatlarini aniqlash ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijodiy yondoshishga imkon beradi. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muqaddas kitob Qur'oni

Karim, Hadisi sharifdan foydalanish juda muhim. Shunday ekan, o`quv yurtlarida o`quvchilarga gumanitar - ijtimoiy fvnlardan ta'lim berishda tarbiyaga ko`proq e'tiborni qaratmoq lozim. Ayniqsa hozirgi sharoitda O`zbekiston tarixi, adabiyotini o`qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo`lgan milliy ma'naviyatga, milliy ruh, urf-odat va, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga alohida urg`u berish zarur.

Yaxshi o`qituvchi o`quvchilarning so`zini diqqat bilan tinglaydi ularga dalda beradi, tinchlantiradi, to`g`ri baho qo`yadi, hammani teng ko`radi, bolalarni sevadi. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlaridan yuqori qo`yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o`rtasida o`zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o`zgartirish demakdir.

O`qituvchi o`quvchiga, avvalgidek, tarbiya ob'ekti emas, xuddi o`zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor. Ya'ni o`quvchiga faqat mening buyrug`imni bajaruvchi emas, balki mening o`zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, hamkorlik kiluvchi deb qarashi lozim.

Bola butun kalbini darsga bag`ishlasa, uni og`ir ahvolga solib qo`ygan bo`lamiz, u faqat o`quvchigina emas, avvalo, rang-barang qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlarga ega bo`lgan insondir. Situativ ta'lim metodikasi o`quv jarayonini yaxshilash uchun samarali va qiziqarli metodlardan biridir, ayniqsa, faqat bilim olishni emas, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qiladigan fanlarda. Bu metodika, real hayotdagi vaziyatlarni tushunish zarur bo`lgan ijtimoiy fanlar, psixologiya va ta'lim kabi sohalarda ayniqsa samarali bo`lishi mumkin. Ushbu metodika o`quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikr yuritish va faol ravishda muammolarni hal qilishga undaydi, bu esa zamonaviy ta'limda muhim bo`lgan asosiy ko'nikmalardir.

Situativ ta'lim metodikasining amaliy qo'llanilishi va samaradorligini tushunish uchun avvalo bu metodikaning nazariy asoslarini ko'rib chiqish zarur. Situativ ta'lim metodikasi o`quvchilarni faqatgina nazariy tushunchalar bilan cheklanmasdan, ular uchun real hayotga yaqin vaziyatlarni yaratish prinsipiga asoslanadi. Bu metodika ta'lim jarayonini nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashni ta'minlaydi. O`quvchilarga real vaziyatlar bilan tanishish imkoniyati berilishi, ular o'zlari o'rganayotgan materialni haqiqiy hayotdagi muammolarga qo'llashga harakat qiladilar. Shuning uchun, bu metodika o`quvchilarning faqatgina passiv bilim oluvchilar emas, balki o`quv jarayonida faol ishtirok etuvchi shaxslar bo'lishini ta'minlaydi. Situativ ta'lim metodikasining asosiy afzalliklaridan biri o`quvchilarda qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Real hayotda ko'plab vaziyatlar yuzaga keladi, unda tez va samarali qarorlar qabul qilish zarur bo'ladi. Bunday vaziyatlarni o`quvchilar sinfdagi simulyatsiya qilish orqali bu ko'nikmalarni

rivojlantirishi mumkin. Masalan, psixologiya fanida o'quvchilarga biror bemor haqida holat taqdim etib, uning holatini tahlil qilish va muolajalar bo'yicha qaror qabul qilish topshirig'i berilishi mumkin. Bu orqali o'quvchilar o'rgangan psixologik nazariyalarni haqiqiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, situativ ta'lim metodikasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, chunki o'quvchilar o'z qarorlarining oqibatlarini ko'rib chiqishga undaladi. An'anaviy ta'lim metodlarida o'quvchilar faqatgina ma'lum bir faktlarni yodlashlari yoki belgilangan qadamlarni bajarishlari kerak. Biroq, situativ ta'limda o'quvchilar vaziyatlarni tahlil qilishda turli nuqtai nazarlardan yondashishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon o'quvchilarning materialni chuqurroq tushunishlariga va o'qish jarayonida fikrlash va qaror qabul qilishda yanada ongli bo'lishlariga yordam beradi. Situativ ta'lim metodikasining bir nechta samarali qo'llash usullari mavjud. Ulardan biri "case-study" (holat tahlili) usulidir, bu metodda o'quvchilarga biror muammo yoki vaziyat taqdim etiladi va ular bu holatni tahlil qilib, eng yaxshi yechimni topishga harakat qiladilar. Masalan, psixologiya darsida o'quvchilarga xastalik yoki jamiyatdagi ijtimoiy muammolar bilan bog'liq holatlar berilishi mumkin, va ular ushbu holatlar yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar. Bu usul o'quvchilarga real vaziyatlarda o'z qarorlarini asoslashni o'rgatadi va ularni yanada samarali qarorlar qabul qilishga undaydi. Yana bir samarali usul — rollarni o'ynash (role-playing) metodikasi bo'lib, bunda o'quvchilar o'zi tasavvur qilgan turli rollarda ishtirok etadilar. O'quvchilarga turli vaziyatlarda qanday qilib harakat qilishlarini ko'rsatish orqali, ular empatiya va boshqalarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, bir guruh o'quvchilarni kasallik bilan og'rikan bemorning ro'li, boshqa guruhni esa davolovchi shifokorning ro'li berilishi mumkin. Bu o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni yechishga undaydi.

Bundan tashqari, simulatsiya usuli ham situativ ta'limda qo'llaniladi. Bu usulda o'quvchilarga biror ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy vaziyatni simulyatsiya qilish taklif etiladi. O'quvchilar ushbu vaziyatni tahlil qilib, eng yaxshi yechimni topish uchun turli xil qarorlar qabul qilishadi. Bu metodika o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni yechishda nima qilish kerakligini o'rgatadi va ularni tezkor qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, guruh muhokamasi — bu metodikadan foydalanish ham juda samarali. O'quvchilarni guruhlarga bo'lib, biror mavzuni muhokama qilishga jalb qilish, turli fikrlarni tinglash va muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Bu metod o'quvchilarda jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni bir-birlarining fikrlarini qadrlashga undaydi. Situativ ta'lim metodikasining o'quvchilarga ta'siri ijobiy natijalarga olib keladi. O'quvchilar faqatgina nazariy bilimlarni olish bilan cheklanmaydilar, balki ularning amaliy ko'nikmalari ham

rivojlanadi. O'quvchilar o'zlarini biror muammoni hal qilishda qanday tutishlarini tushunib yetadilar. Shuningdek, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu metodika, o'quvchilarda shaxsiy rivojlanish, mas'uliyatni his qilish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Situativ ta'lim metodikasi umumta'lim maktablarida o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmay, ularni amaliy ko'nikmalar bilan ham tanishtirishni ta'minlaydi. Ushbu metodika o'quvchilarda real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, situativ ta'lim o'quvchilarni faollashtirib, ularni o'z fikrlarini erkin ifodalashga, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga va o'z qarorlarini asoslashga o'rgatadi. Bundan tashqari, situativ metodika o'quvchilarda mas'uliyatni his qilish, jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlashni ta'minlaydi. Guruh ishlari, muhokamalar, simulyatsiyalar va holat tahlillari kabi amaliy usullar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini real hayotdagi muammolarga qo'llashni o'rganadilar. Bu esa ularni yanada samarali va faol o'quvchilar sifatida shakllantiradi. O'quvchilarga haqiqiy vaziyatlarni yaratish orqali, situativ ta'lim ularning ta'lim olish jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. O'quvchilar nafaqat o'qish bilan, balki o'zaro fikr almashish, qarorlar qabul qilish va turli fikrlarni tahlil qilish orqali o'quv jarayonida yanada faol ishtirok etishadi. Bu metodikaning natijalari o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, ularni mustaqil fikrlovchi va jamoada samarali ishlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E. Psixologiya o'qitish metodikasi. Toshkent, O'zMU, 2002.
2. G'oziev E., O'tanov B. Hamkorlik psixologiyasi. Toshkent, ToshDU, 1992.
3. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, O'zMU, 2004.
4. Панибратцева З.М. Методика преподавания психологии. Москва, Просвещение, 1971.
5. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDPU, 2002.
6. Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2000.
7. S. Ogaev. Ta'lim texnologiyasi. Xalk ta'limi 2000 yil. № 3.
8. B.X. Bobomirzaev Pedagogik amaliyot psixologik muammo sifatida. Tokent – 1997 yil.
9. Ходжиева, Г. (2024). Анализ и сравнения языковых особенностей гендерной коммуникации на примере итальянской и узбекской литературы. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4/S), 232-235.
10. Norovna, X. G., & Sarvinoz, S. (2025). Italyan tilida artikllarning qo'llanish usullari. Yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, 2(5), 329-331.

11. Khodjieva, G. (2024). Analysis and comparison of linguistic features of gender communication on the example of Italian and Uzbek literature.
12. Ходжиева, Г. Н. (2023). Организация учебного процесса в системе довузовской подготовки по иностранному языку в дистанционной форме. Экономика и социум, (4-1 (107)), 990-993.
13. Мардонова, Р. О. Teaching Four Skills In The Primary Classroom Обучение Четырём Навыкам В Начальной Школе. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 116.
14. Djabbarova, S., Tadjieva, M., & Ra'no Mardonova, G. T. (2020). Problem Based Learning and Its Efficiency in Teaching Process. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 291-296.
15. Мардонова, Р. О. (2018). Обучение Четырём Навыкам В Начальной Школе. Гуманитарный трактат, (21), 113-116.
16. Ochildievna, M. R. (2019). The Study of the Modification of Sounds in Coherent Speech in English and Uzbek Languages. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
17. Jumayeva, M., & Rashidova, M. (2022). The role of using game technology in the educational process. Science and innovation, 1(B8), 1448-1452.
18. Mardonova, R. O., & Turdieva, O. O. K. (2018). The Impact Of Tpr Method On Children's Vocabulary Learning Process. Гуманитарный трактат, (29), 122-123.
19. Хакимов, М. (2024, November). Языковая картина мира и её теоретическое осмысление на примере итальянского языка. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 154-155).
20. Danilov, O. E., & Pozdeeva, O. G. (2014). Features of distance learning. In Problems and prospects for the development of education: materials of the V Intern. scientific conf. Perm (pp. 34-37).
21. Хакимов, М. Р. (2020). Развитие инновационных технологий в системе высшего образования Республики Узбекистан. Re-health journal, (2-2 (6)), 163-164.
22. Jumayeva, M. B. (2025). Use of educational methods in pedagogy. Икро журнал, 14(02), 168-174.
23. Abdisheribov, S., Yo'Ldosheva, M., & Jumayeva, M. (2022). Implementing creative writing in English language teaching classrooms. Science and innovation, 1(B8), 1343-1347.
24. Kamiljanovna, Z. D., O'G'Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis Of Higher Order Thinking Skills. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 672-676.
25. Aleksandrovna, T. A., Stanislavovna, S. L., & Abdusamiyevna, V. A. (2021). Gender stereotypes in semantics of Spanish proverbs. Linguistics and Culture Review, 1336-1345.
26. Jumayeva, M., & Turdiyeva, U. (2022). The Importance Of Pedagogical Technologies In Learning English. Science and innovation, 1(B8), 1710-1714.